



**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities  
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

**Date:** 1<sup>st</sup> December, 2023

**ISSN:** 2835-3196

**Website:** econferenceseries.com

## **XORIJIY TILLARNI O'RGANISHDA ZAMONAVIY METOD VA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.**

Amondillayeva Sevinch Ikrom qizi

Samarqand Davlat Chet tillari instituti Ingliz II fakulteti

Xorijiy til va adabiyot yo'nalishi 2-kurs 2230-guruh talabasi

e-mail:Samondullayeva@gmail.com

### **ANNOTATSIYA**

Hozirgi kunda aksar o'sib kelayotgan yoshlarimiz texnologiyalar bilan hamnafas yashashga o'rganib qolishgan va texnologiyalar ham insonlarning yordamchisi bo'lib qolgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Texnologiyalarning har taraflama foydalari borligi uchun ham ta'lim tizimida ulardan oqilona foydalanish avzal deb bilinmoqda. Ayniqsa Xorijiy tillarni o'qitishda va yangicha metodlarni yaratishda zamonaviy texnologiyalar ancha qo'l kelmoqda. Ushbu maqola Xorijiy tillarni o'qitish uchun metodlar topishda va yangicha uslubda dars jarayonlariga yondashishda texnologiyalarning o'rni haqidadir.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy texnologiyalar, ta'lim, talabalar, metod, uslub, kelajak, ustuvorlik, qurilmalar, xorijiy tillar, malaka, ko'nikma, qobiliyat.

### **ABSTRACT**

It is not an exaggeration to say that most of our young people who are growing up today are used to living in harmony with technology, and technology has become an assistant to people. it is considered preferable to use technologies wisely in the educational system because they have many benefits. Modern technologies are especially useful in teaching foreign languages and creating new methods. this article is about the role of technology in finding methods for teaching foreign languages and approaching the teaching process in a new way.

**Keywords:** modern technologies, education, students, method, style, future, priority, devices, foreign languages, skills, abilities.

## **KIRISH**

XXI asr zamonaviy texnologiyalar asridir. Aynan biz shu asr mobaynida yangidan yangi texnologiyalar va ularning ko'plab imkoniyatlari bilan tanishdik. Hozirgi kunda kichik yoshdagi bolalardan tortib katta yoshdagi insonlar ham bu texnologiyalarga o'r ganib qolishgan va ulardan foydalanish insonning ishslash va o'qish samaradorligini oshirmoqda. Ko'plab o'quvchi va talabalarimiz mobil telefonlari orqali ko'plab ishlarni amalga oshirmoqda. Aytish joizki, texnologiyalarning qanchalik ijobiy taraflari ko'p bo'lmasin, agar ulardan oqilona foydalana olmasak, biz ko'plab xatoliklarga yo'l qo'yishimiz, talaba va o'qituvchi o'rtasida tafovutni keltirib chiqarishimiz mumkin. Ushbu maqolaning asosiy jihat shundan iboratki, ko'plab o'qituvchilarga tavsiya va nazariy bilimlarni qay yo'sinda talaba, o'quvchilarga yetkazib bera olish ko'nikmasini oshirishda texnologiyalardan foydalanish maslahatlari jamlangandir.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Aynan biz uchun muhokamaga sabab bo'layotgan jihat shuki, zamonaviy texnologiyalar o'sib kelayotgan yosh avlodning fikrlash doirasini jadal kengaytiribgina qolmasdan, ularning xulqi va ilm olishga bo'lgan ishtiyoqini ham o'zgartirib yubormoqda. Misol tariqasida shuni olishimiz mumkinki, aksar yoshi katta o'qituvchilarimiz texnologiyalarni tushinmaydilar va ular odatdagagi dars o'tish jarayonlarini avzal deb bilishadi. Ammo bu usul ancha eskirgandir va o'quvchilar uchun ancha zerikarli. Bu esa o'quvchi o'qituvchini tinglamasligini va darsga bo'lgan ishtiyoqini tushirib yuborishiga sabab bo'ladi. Bir nechta psixologlarning o'qituvchilar bilan bo'lgan suhbatida o'qituvchilar o'quvchilarning darsga bo'lgan qarashlari ancha o'zgarganini va ular avvalgi o'quvchilardan tubdan farq qilishlarini aytishgan. Texnologiyalar o'z ta'sir doirasini kengaytirishi bunday salbiy holatlarga olib kelmoqda. Shu boisdan ham O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rtal maxsus ta'lim vazirligi huzurida Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazini (keyingi o'rnlarda Bosh ilmiy-metodik markaz deb ataladi) tashkil qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilindi. Aslilni olganda texnologiyadan shunchaki oqilona foydalana olmasligimiz, bu bizning xatoyimizdir. Komputer va mobil ilovalar bizlarni yanada yangicharoq uslubda ta'lim berishimizga ko'plab imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan, Xorijiy tillarni



o'rganishimiz uchun bizlar o'zimizdanda yuqori malaka va ko'nikmaga ega bo'lган Xalqaro darajadagi pedagoglarning ish faoliyatini kuzatishimiz va ularning dars o'tish metodlaridan foydalangan holda o'zimizning yangicha uslubimizni yaratishimiz mumkin.

Nafaqat internetdan olish balki, u orqali o'zimiz ham yangi metodlarimizni dunyoga tarqatishimiz mumkin va bundan ko'plab o'qituvchilar ham foydalanishlari mumkin. Biz o'qituvchilar qachonki, talabalarimizni dars davomida qiziqtira olsak, ularni darsga jalg eta olsak, qiziqarli ma'lumotlarimiz orqali ularni lol qoldira olsak, bir so'z bilan aytganda ularni o'zimizga pedagogik mahoratimiz orqali bog'lab olishimizda ayrim mobil ilovalar ham qo'l keladi. Masalan: tarjima, online web saytlar, canva, talking va shu kabi ajoyib ilova va saytlardan foydalanishimiz mumkin. Xorijiy tilning salohiyatini oshirishda albatta aynan biz o'rganmoqchi bo'lган tilda bemalol gapira oladigan insonlar bilan suhbat qurishimiz kerakdir. Misol tariqasida ingliz tilini oladigan bo'lsak, biz bu tilni o'quvchilarimiz yanada yaxshi o'zlashtirishlari uchun Xorijlik mutaxassislar bilan online suhbat o'tkazishimiz ya'ni dars davomida aynan o'quvchilarmiz ularni kuzatishi yoki o'zlariga qiziq bo'lган savollarini berishlariga imkoniyat yaratib berishimiz joiz deb o'ylayman. Yoki "Hallo" mobil ilovasi orqali boshqa malakali pedagoglar bilan suhbat o'tkazishiga, fikr almashishiga imkoniyat yaratib berishimiz kerakdir. Oddiy taqdimotlar bilan darslarni boyitishimiz endi o'quvchilarmizni darsga jalg etish uchun kamlik qiladi. Bizlar endi har taraflama o'ziga jalg qila oladigan manbaalarni yaratishimizda esa "Canva" mobil ilovasidan yoki "Prezi" dasturidan oqilona foydalansak kifoya.

Xorijiy tillarni o'rgatishning eng boshlang'ich davri bu maktabgacha bo'lган davridir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham xorijiy tillardan ta'lim berilmoqda. Aynan bolajonlarning so'z yodlashlari va yangi xorij tilida yozilgan she'rlarni tez o'zlashtirishlari uchun "Scratch" dasturi bizga ancha qulayliklar yaratib beradi. Biz bu orqali multfilm va so'z yodlashlari uchun animatsiyalar yaratishimiz mumkin. Qisqa qilib aytadigan bo'lsak, xorijiy tillarni o'rgatish va o'rganishning ko'plab imkoniyatlari zamonaviy texnologiyamizda mujassamdir. Biz undan o'rinni foydalana olsak ko'plab yutuqlarga erishishimiz va o'quvchilarimizning mehr-muhabbatlarini ham qozonishimiz mumkin.

---

## **ELEKTRON MANBAALAR**

1. <https://lex.uz/>
2. <http://www.e-library.tsuosl.uz/>
3. <http://www.fledu.uz/>

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

4. Shabanov. D Chet tilini o`qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalari. Toshkent, 2009.